



DILLARDA IYMONGA AYLAN – EY, VATANI

# DO'STLIK HAYOTI

DO'STLIK TUMANI  
HOKIMLIGINING IJTIMOIY-  
SIYOSIY GAZETASI  
Gazeta 1971-yildan chiqib boshlagan.

№ 4 (3443) 18-aprel, 2026-yil, shanba

ISSN -2012-9725

Bahosi erkin narxda

dustlik.hayoti@inbox.uz

dustlik.uz

## Sanoat kooperatsiyasida yangi bosqich: DO'STLIK TUMANIDA MUHIM YIG'ILISH O'TKAZILDI

«Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoni qabul qilinishi mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Ushbu muhim hujjatga muvofiq, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarilishini kengaytirish, sanoat tarmoqlari va aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zlashtirish hamda ishlab chiqarish hajmlarini oshirishda bozor mexanizmlarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlik sub'yektlari va yirik korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini tizimli ravishda kengaytirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish va ularni rag'batlantirish choralari belgilangan.

Farmon asosida Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi tashkil etilmoqda.

Bugun Do'stlik tumani hokimligida mazkur agentlikning viloyat hududiy bo'limi rahbari Sarvar Abdullayev hamda sohadagi mutasaddilar ishtirokida tuman tadbirkorlari bilan yig'ilish o'tkazildi. Unda yangi boshqaruv tizimining asosiy maqsad va vazifalari, amalga oshiriladigan islohotlar mazmuni-mohiyati atroflicha tushuntirildi.

Yig'ilish davomida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali mahalliy ishlab chiqarishni yanada qo'llab-quvvatlash, ularni davlat xaridlariga jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Farangiz SAYDAZIM qizi



Pillachilik

## PILLA QURTI BOQISH MAVSUMI BOSHLANDI

Do'stlik tumanida pilla qurti boqish mavsumiga start berildi. Pillakorlar bu yilgi mavsumni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida puxta tayyorgarlik ko'rdilar.

Xususan, tumanning "Sanoatchilar" mahallasida ham bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Mahallada jami 130 quti pilla qurti boqilishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar barcha pillakorlarga qurtlar o'z vaqtida yetkazib berildi.

Ayni paytda pillakorlar parvarish ishlarini to'g'ri tashkil etish, qurtlarning sifatli o'sishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu esa mavsum yakunida yuqori hosildorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Farangiz VALIXONOVA,  
BuxDU talabasi

## IJTIMOIY XIMOA TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI: ISLOHOTLARNING YANGI BOSQIHI

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 26 декабрда қабул қилинган «Ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларига давлат ижтимоий қўллаб-қувватлаш чораларини тақдим этиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-258-сон Фармони ва унинг ижросини таъминлаш мақсадида 2026 йил 29 январда қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг «Ижтимоий реестрга киритилган оилаларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги 35-сон қарори ижтимоий ҳимоя соҳасидаги қонунчиликда принципал ўзгаришларни жорий этди. Ушбу мақолада мазкур ҳужжатларнинг асосий ҳуқуқий мазмуни, аҳамияти ва ижро механизмлари таҳлил қилинади.

### I. Ислохотнинг ҳуқуқий-меъёрий базаси

Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 29 январда қабул қилинган 35-сон қарори билан 7 та норматив ҳужжат тасдиқланди:

- 1-илова: Ижтимоий реестрни юритиш тартиби тўғрисидаги Низом;
- 2-илова: Реестрга киритилган оилаларга индивидуал режа ишлаб чиқиш тартиби тўғрисидаги Низом;
- 3-илова: Болалар нафақаси ва моддий ёрдам тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги Низом;
- 4-илова: Апелляция кенгашлари тўғрисидаги Низом;
- 5 ва 7-иловалар: «ЯМИХ» ахборот тизимидаги идоралараро электрон маълумотлар ва интеграция рўйхатлари;
- 6-илова: Реестрга киритилган оилаларга кўрсатиладиган давлат ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоралари рўйхати.

### II. Ижтимоий реестр: янги ҳуқуқий тартиб

Ижтимоий реестр — аввалги параллел ва муво-

фиқлаштирилмаган реестрларни алмаштирувчи ягона рақамли маълумотлар базасидир.

Давлат томонидан кўрсатиладиган ижтимоий ёрдамнинг манзиллигини таъминлаш мақсадида оилалар ўзларининг моддий ҳолати ва ижтимоий мақомидан келиб чиқиб, қуйидаги учта асосий тоифага ажратилди:

1. Давлат тўлиқ таъминотидаги оилалар:

Ушбу тоифага даромади минимал иш ҳақининг 1,25 бараваридан кам бўлган, шунингдек, объектив сабабларга кўра оғир турмуш шароитига тушиб қолган хонадонлар киритилади.

2. Камбағал оилалар:

Даромади нисбатан юқори, яъни минимал иш ҳақининг 1,25 дан 1,5 бараваригача бўлган оилалар ушбу гуруҳга мансуб ҳисобланади.

3. Камбағаллик чегарасидаги оилалар:

Агар оиланинг даромади минимал миқдорнинг 1,5 бараваридан кам бўлса ва шу билан бирга хонадонда ижтимоий хавфли шарт-шароитлар (масалан, носоғлом муҳит, зўравонлик хавфи ёки яшаб шароитларининг кескин ёмонлиги) мавжуд бўлса, улар алоҳида назоратга олинади.

Реестрга киритиш жараёни беш bosqichdan iborat:

- Ариза — давлат хизматлари маркази, «Инсон» маркази, ЯМИХ АТ, ЯИДХП ёки «Ижтимоий карта» иловаси орқали. Шахс Face-ID, ЭРИ, дактилоскопия ёки СМС орқали тасдиқланади.
- Дастлабки баҳолаш — ЯМИХ АТ идоралараро маълумотлар асосида автоматик равишда, 3 иш куни ичида.
- Саволнома — ижтимоий ходим оилага бориб, электрон саволнома тўлдиради; ариза берувчи биометрик воситалар орқали тасдиқлайди.
- Маҳалла «еттилиги» хулосаси — 3 иш куни ичида кўпчилик овози билан электрон имзо орқали тасдиқланади.
- Якуний баҳолаш ва киритиш — ЯМИХ АТ 3 иш

куни ичида оила портретини шакллантириб, реестрга киритади.

### III. Оила даромади ва таркибини аниқлашнинг ҳуқуқий мезонлари

Низомнинг 18–20-бандлари тоифалашнинг асоси — бир ойлик жами ўртача даромад — ни аниқлашнинг батафсил методологиясини белгилайди. Ҳисоблашга қуйидагилар киритилади: расмий иш ҳақи, мулкий даромадлар, алиментлар (тўланган алиментлар даромаддан чиқарилади), хорижий пул ўтказмалари (Марказий банк курси бўйича), пенсия, стипендия ва бошқа тўловлар.

Оила даромадини ҳисоблашда қуйидагилар оила таркибига киритилмайди:

- тўлиқ давлат таъминотидаги болалар;
- ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этилган шахслар;
- суд қарорига кўра бедарак йўқолган деб топилган шахслар;
- расман никоҳи бекор қилинмаган, аммо алимент тўлаш мажбурияти белгиланган эр (хотин).

### IV. Индивидуал режа ва жавобгарлик тизими

Реестрдаги ҳар бир оила учун «маҳалла еттилиги» иштирокида индивидуал режа тузилади.

Принципиал ҳуқуқий ўзгариш: индивидуал режа ижросининг ҳолати туман (шаҳар) ҳокимларининг КРІ кўрсаткичи сифатида белгиланди. Бошқарув самардорлиги агентлиги эса мазкур кўрсаткични маҳаллий ижро органлари раҳбарларини баҳолашда алоҳида ўрин тутишини таъминлаши шарт.

### V. Апелляция кенгашлари: фуқаролар ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг янги механизми

Қарорнинг 5-бандига кўра, барча туман ва шаҳар ҳокимликлари ҳузурида бир ой ичида Апелляция кенгашлари ташкил этилиши лозим.

Давоми 2-бетда

## Do'stlikda yoshlar shiddati: FESTIVAL VA DXX KUBOGIGA START BERILDI



Do'stlik tumanidagi "Yoshlar shahrachasi"da Besh tashabbus olimpiadasi doirasida keng qamrovli "Yoshlar festivali" hamda viloyat miqyosidagi sportning futbol va minifutbol turlari bo'yicha mahallalardagi yigitlar va qizlar o'rtasida DXX kubogi bahslariga tantanali start berildi.



Festival doirasida yoshlar o'z iqtidor va jismoniy salohiyatlarini turli yo'nalishlarda namoyon etishdi. Jumladan, shaxmat, kibersport, voleybol, basketbol, uzunlikka sakrash, qo'l kurashi, turnikka tortilish, tennis va yugurish bo'yicha qizg'in bellashuvlar tashkil etildi. Shu bilan birga, "Zakovat" intellektual o'yini va "Yoshlar ovozi" tanlovi ham ishtirokchilar va tomoshabinlarda katta qiziqish uyg'otdi.



Viloyat miqyosidagi DXX kubogi bahslari esa tumanda yaqinda foydalanishga topshirilgan zamonaviy sport majmuasida yuqori saviyada tashkil etildi. Unda viloyatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, hamkor tashkilotlar mas'uldarlari va faol yoshlar ishtirok etdi. Tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangragach, viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Zafar Azimov

hamda viloyat DXX boshqarmasi boshlig'i Shavkat Tog'ayev so'zga chiqib, mazkur musobaqalarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishdagi ahamiyati haqida alohida to'xtalishdi. Marosimda rahbarlar tmonidan rasmiy tugmalar bosilib, barcha ishtirokchilarga omad va muvaffaqiyatlar tilandi.

Tadbir davomida DXX kubogining tuman bosqichi uchun qur'a tashlash marosimi ham o'tkazildi. Shuningdek, viloyat va tuman badiiy jamoalarining musiqiy chiqishlari bayramona kayfiyatni yanada oshirib, tadbirga alohida shukuh bag'ishladi.

Mazkur festival va sport musobaqalari yoshlarni birlashtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

**Farangiz VALIXONOVA**

## ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ

(Давоми.Бошланиши 1-бетда)

Ушбу Кенгаш таркиби давлат органлари ва жамоатчилик вакилларининг мутаносиблиги асосида шакллантирилган бўлиб, қуйидаги иерархияга эга:

Раҳбарият ва бошқарув:  
Кенгаш фаолиятига бевосита туман (шаҳар) ҳокимининг ижтимоий масалалар бўйича ўринбосари раислик қилади. Тизимнинг самарали ишлаши ва маҳаллалар билан алоқани мустаҳкамлаш мақсадида Ўзбекистон маҳаллалари уюшмасининг бўлим бошлиғи Кенгаш раисининг ўринбосари сифатида масъул этиб белгиланган.

Ижро ва мувофиқлаштириш:

Кенгашнинг кундалик ташкилий ишларини ва ҳужжатлар билан ишлаш жараёни «Инсон» ижтимоий хизматлар маркази ходими котиб сифатида юрилади.

Кенгашнинг доимий аъзолари:

Қарорлар қабул қилиш жараёнида соҳавий мутахассислар ва ижро тизими раҳбарлари аъзо сифатида иштирок этадилар:

Камбағалликни қисқартириш ва бандликка кўмаклашиш бўлими бошлиғи — бандлик ва меҳнат бозори масалалари бўйича;

«Инсон» ижтимоий хизматлар маркази директори — ижтимоий кейсларни профессионал бошқариш бўйича;

### VI. Рақамлаштириш ва маълумотлар ҳимояси

Янги тизимнинг асосий ижро воситаси — «Ягона миллий ижтимоий ҳимоя» (ЯМИХ) ахборот тизими. Барча жараёнлар тўлиқ электрон шаклда амалга оширилади.

Қарорнинг 4-бандига кўра, Рақамли технологиялар вазири ва Адлия вазири икки ой ичида манфаатдор вазириликлар билан биргаликда 5 ва 7-иловлардаги маълумотларнинг Идоралараро интеграциялашув платформаси орқали ЯМИХ АТга узатилишини таъминлаши шарт.

Шунингдек, қарорнинг 3-банди «а» кичик бандига кўра, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги икки ой ичида ЯМИХ тизимига биометрик идентификация (Face-ID), ЭРИ ва СМС орқали ариза тасдиқлаш имкониятини яратиши лозим.

### VII. Молиявий ҳимоя чоралари

2026 йил 1 январдан минимал иш ҳақи миқдори белгиланди. Барча нафақа

ва стипендиялар шу миқдорга нисбатан ҳисобланади. 2-иловадаги жадвалда 14 тоифадаги нафақа тури аниқ нисбатлар билан белгиланган — бу фуқарога ҳуқуқий аниқлик беради.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикасининг ПФ-258 Фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг 35-сон қарори ижтимоий ҳимоя соҳасида бир қатор принципиал ҳуқуқий ўзгаришларни жорий этди: ягона реестр ва аниқ тоифалаш тизими орқали дискреция ваколатлари чекланди; индивидуал режа КРІ-жавобгарлиги орқали маҳаллий ижро ҳокимиятига ижтимоий натижадорлик юкланди; апелляция кенгаши орқали фуқаронинг ҳуқуқини ҳимоя қилишнинг маъмурий механизми яратилди; биометрик тасдиқ ва СМС-хабарлаш орқали жараённинг шаффофлиги меъёрлаштирилди.

Ушбу ислоҳот нормаларини тўлиқ ва самарали ижро этиш барча манфаатдор орган ва ташкилотлардан юқори ҳуқуқий масъулиятни талаб этади.

**Мурод МАМАТҚУЛОВ,**  
Ижтимоий ҳимоя миллий агентлигининг Жиззах вилоят бошқармаси бош юрисконсулти.

## KREDIT SHARTNOMASI NIMA?

**Кредит шартномаси — бу кредит берувчи (odatda bank yoki moliya tashkiloti) bilan kredit oluvchi (jismoniy yoki yuridik shaxs) o'rtasida tuziladigan yozma kelishuv. Ushbu shartnoma asosida kredit beruvchi muayyan summadagi pul mablag'ini kredit oluvchiga belgilangan muddat va shartlarda berib, kredit oluvchi esa bu mablag'ni qaytarish va shartlarda ko'rsatilgan foizlarni to'lash majburiyatini oladi.**

Кредит шартномаси bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summagini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Кредит bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda sud qarorida ko'rsatilgan, kredit bo'yicha undiriladigan summaga nisbatan ushbu Kodeksning 327-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida hamda 734-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan foizlar, shuningdek neustoyka hisoblanishi to'xtatiladi.

Кредит шартномаси yozma shaklda tuzilishi shart.

Yozma shaklga rioya qilmaslik kredit shartnomasining haqiqiy

bo'lmasligiga olib keladi.

Кредитор qarz oluvchini to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi kreditni ta'minlash majburiyatlarini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli.

Qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli. Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan kredit berish muddatiga qadar xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo'yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatishga haqli.

Кредит shartnomasining asosiy qismlari:

- Kredit summasi — kredit beriladigan mablag'.

- Kredit muddati — kreditni qaytarish uchun belgilangan vaqt.

- Foiz stavkalari — kredit uchun to'lanadigan qo'shimcha mablag', odatda yillik hisoblanadi.

- Qaytarish tartibi — kreditni qanday va qachon qaytarish kerakligi (oylik to'lovlar, bir martalik to'lov va h.k.).

- Kafolatlar va ta'minotlar — kreditni qaytarishni ta'minlash uchun beriladigan mol-mulk yoki boshqa kafolatlar.

- Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari — kredit berish va olish bo'yicha tomonlarning huquqlari va majburiyatlari.

- Javobgarlik choralari — shartnoma buzilganda qo'llaniladigan jazo va jarimalar.

Кредит shartnomasining ahamiyati:

- Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni aniqlaydi.

- Kredit oluvchi va kredit beruvchi huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

- Qarzni qaytarish tartibini va shartlarini rasmiylashtiradi.

- Nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelganda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlar:  
- Kredit shartnomasini imzolashdan oldin uni diqqat bilan o'qib chiqish muhim.

- Agar shartnoma shubhali yoki tushunarsiz bo'lsa, huquqiy maslahat olish tavsiya etiladi.

- Kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish qarzga bog'liq qarzдорlik va moliyaviy muammolardan saqlaydi.

**B.KAZAKOV,**  
Fuqarolik ishlari bo'yicha Do'stlik tumanlararo sudi raisi

## ПОМИДОРНИНГ ХАВФЛИ КАСАЛЛИГИ — КЛАДОСПОРИОЗ!

Уни қандай аниқлаш ва курашиш мумкин?

Помидор кладоспориози (*Cladosporium fulvum*) (қўнғир доғла-ниш, барг моғори) — касалликни *Cladosporium fulvum* гифомицет замбуруғи қўзғатади. Кладоспориоз бутун дунёда тарқалган бўлиб, у иссиқхоналарда помидорнинг асосий касалликлари билан бири ҳисобланади. Очиқ далаларда камроқ учрайди. Ўзбекистоннинг жанубида иссиқхоналарда помидорнинг энг кенг тарқалган ва хавфли касаллигидир. Касалликнинг кучли эпифитотиялари баъзан очиқ далаларда ҳам ривожланади.

Касаллик помидорнинг гуллаш — мева туғиш пайтларида бошланади ва асосан барглари зарарлайди. Унинг биринчи белгилари — пастки барглари устида сариқ ёки оч-яшил доғлар, барг остида эса рансиз, сарғиш ёки оч-қўнғир доғлар пайдо бўлишидир. Барг остидаги доғлар яшил-қўнғир (ёки қўнғир-қўнғир) тусли майин моғор билан қопланади. Касаллик тезда тепа ярис баргларига ўтади. Кучли зарарланган барглари олачнор тус олади ва қуриydi.

Касаллик эпифитотия шаклида ривожланганда помидорнинг гул ва мева бандалари, гулкоса барглари ва тугунчалари ҳам зарарлана-

ди ва кейинчалик тўкилиб кетади. Касалликнинг энг кучайган даври — мева пишиш пайтига тўғри келади. Мевалар устида бурғутан, қаттиқ, зайтун рангидаги, моғор билан қопланган доғлар пайдо бўлади.

Зарарланган тўқималар устида замбуруғ миллионлаб конидиялар ҳосил қилади ва касаллик шу конидиялар орқали тарқалади. Конидиялар ҳаво оқимлари, сув томчилари ва ишчилар воситасида тарқалади. Улар 6–34°C (оптимум 22–25°C) ҳарорат ва 75–98% намликда, ёруғлик кам ёки йўқ пайтда (кечалари) фаол ўсади. Касаллик 20–27°C ва 90% дан юқори нисбий намликда жуда тез тарқалади. Намлик 60% дан паст бўлганда ўсимликлар зарарланмайди. Аммо қуруқ ҳавога чидамлилиги сабабли, ҳужайин ўсимлик бўлмаганида ҳам конидиялар 10 ойдан ортиқ ҳаётчанлигини сақлайди.

Касаллик бошланганидан 1–1,5 ой ўтгач, помидор гуллашдан тўхтайдди, мева ўсиши секинлашади. Касал ўсимликлар соғломлардан 1–1,5 ой олдин қуриб қолади. Натижада ҳосил 9,3% дан 96,5% гача камайдди, иссиқхоналарда эса 30–40% ва ундан ортиқ йўқотишлар кузатилади.

Агротехник кураш чоралари:

- Чидамли навлар яратиш

ва қўллаш

- Иссиқхоналарда ал-машлаб экиш

- Ҳаво ҳароратини 24–25°C да (иложи бўлмаса 17–18°C дан паст эмас) ушлаш

- Намлик 65–70% дан ошмаслиги учун тез-тез шамоллатиш

- Пастки барглари эрта олиб ташлаш

- Ортиқча суғормаслик

- Жиҳозларни хлорли оҳак эритмаси билан зарарсизлантириш

Кимёвий кураш чоралари:

- Уруғни экишдан олдин фунгицидлар (масалан, Витавакс 200 ФФ) билан дорилаш

- Вегетация даврида:

- Байлетон 25% (0,5–1,0 кг/га)

- Вектра 10% (0,3 л/га)

- Топсин-М 70% (1,0 кг/га)

- Фоликур БТ 22,5% (0,3–0,5 л/га)

- 1% Бордо суюқлиги

- Мис оксихлориди 90% (2,4 кг/га)

Эслатма: фунгицидлар тез-тез қўлланилса, патогенларда чидамлилиги (айниқасда бензимидазолларга) шаклланиши мумкин.

**Тожибой МАМАТҚУЛОВ,**  
**Ўсимликлар карантини ва ҳимояси фи тосанитар давлат инспектори**

Президенти, Вазирлар Маҳкамаси, вазирлик ва давлат қўмиталарининг, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари ташкил этади.

Вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, ҳуқуқбузарликларининг олдини олиш ҳамда улар томонидан содир этилган маъмурий ва жиноий ишларни кўриб чиқиш тартибини белгилаб берувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал, Жиноят-ижроия ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексларини киритиш мумкин.

Жамиятда соғлом мухитни шакллантириш, Оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш, болаларга нисбатан одил судловни таъминлаш, вояга етмаганлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишни такомиллаштириш, болаларга қайта тарбиялаш имкониятини яратиш, оила, маҳалла, таълим муассасалари билан ҳамкорликни кучайтириш, профилактик чора-тадбирлар самарадорлигини оширишда ифодаланган қарашларни ривожлантириш асосида Вояга етмаганларнинг маъмурий ҳуқуқбузарлигини олдини олишга эришиш мумкин.

**Собир НАБИЕВ,**  
**Жиззах вилоят суди фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳаёяти судьяси**  
**Ботир ИНОЯТОВ,**  
**Фуқаролик ишлари бўйича Дўстлик туманларо суди судьяси**

## Ҳуқуқшунослик

### Меҳнат низоларини судда кўриш: Фуқаролар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг муҳим кафолати

**Бугунги кунда меҳнат муносабатлари ҳар бир инсон ҳаётида муҳим ўрин тутаетди. Иш берувчи билан ходим ўртасидаги муносабатлар меҳнат шартномаси орқали тартибга солинади. Бироқ айрим ҳолатларда меҳнат жараёнида келишмовчиликлар юзага келиб, меҳнат низолари келиб чиқиши мумкин. Бундай вазиятларда фуқароларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклашда суд муҳим рол ўйнайди.**

Меҳнат низоси — бу ходим билан иш берувчи ўртасида меҳнат қонунчилиги, меҳнат шартномаси ёки жамоа шартномаси билан боғлиқ масалалар юзасидан юзага келадиган келишмовчиликдир.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 559-моддасига кўра, ходим ёки касабани уюшмалари, уларнинг бирлашмалари, бўлинмалари ва бошланғич касабани уюшмалари ташкилотлари, давлат меҳнат инспекциясининг мансабдор шахслари, иш берувчи, у меҳнат низолари бўйича комиссиянинг қароридан норози бўлганда, шунингдек ўзига ходим томонидан етказилган моддий зарарнинг ўрнини қоплаш ҳақидаги низолар бўйича, қонунчиликда белгиланган тартибда адлия органлари ҳамда прокурор ёки тартибдаги меҳнат низосининг кўриб чиқиши учун судга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексининг 26-моддасига мувофиқ, меҳнатга оид ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низолар фуқаролик ишлари бўйича судлар томонидан кўриб чиқилади.

Меҳнат низоларини судда кўриш бошқа фуқаролик ишларидан айрим жиҳатлари билан фарқланади.

Аввало, бундай ишлар ходимларнинг ижтимоий ҳуқуқлари билан боғлиқ бўлгани сабабли судлар томонидан тезкор тартибда кўриб чиқиши муҳим ҳисобланади.

Иккинчидан, Фуқаролик процессуал кодексининг 266-моддасига кўра, меҳнат шартномаси ғайриқонуний равишда бекор қилинган ходимни ёки ғайриқонуний равишда бошқа ишга ўтказилган ходимни аввалги ишга тиклаш тўғрисидаги, шунингдек меҳнат шартномасини бекор қилиш асосларининг таърифини ўзгартириш тўғрисидаги ишлар бўйича суднинг ҳал қилув қарорла-

ри дарҳол ижро этилиши лозим бўлган суд ҳужжатлари қаторига киради. Бу эса ходимнинг бузилган ҳуқуқларини тезда тиклашга хизмат қилади.

Учинчидан, меҳнат низолари бўйича ходимлар яқка тартибдаги меҳнат муносабатларидан келиб чиқадиган талаблар бўйича судга мурожаат этганда суд харажатларидан озод қилинади. Бу эса фуқароларнинг суд орқали ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилиш имкониятларини кенгайтиради.

Суд амалиётида энг кўп учрайдиган меҳнат низоларидан бири ходимни ноқонуний равишда ишдан бўшатиш билан боғлиқ низолардир.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг 561-моддаси

1-3-қисмларига мувофиқ, меҳнат шартномаси қонуний асосиз бекор қилинган, ғайриқонуний равишда бошқа ишга ўтказилган, меҳнат шартлари ўзгартирилган ёхуд ишдан четлаштирилган ҳолларда яқка тартибдаги меҳнат низосини кўриб чиқувчи орган ходимни аввалги ишга тиклайди, шунингдек аввалги меҳнат шартларини тиклайди.

Меҳнат шартномасини иш берувчининг ташаббусига кўра бекор қилишнинг қонунийлиги тўғрисидаги масалани ҳал қилаётганда суд ходим билан меҳнат муносабатларини тугатишнинг асослилигига баҳо беради.

Яқка тартибдаги меҳнат низосини кўриб чиқадиган суд ходимга мажбурий прогнунинг бутун вақти учун ўртача иш ҳақини ёки кам иш ҳақи тўланадиган ишни бажарган бутун вақти учун иш ҳақидаги фарқни тўлаш тўғрисида қарор қабул қилади.

Суд орқали меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш фуқароларнинг қонун билан кафолатланган ҳуқуқларини тиклашга хизмат қилади.

Меҳнат низоларини адолатли ва қонуний ҳал этиш жамиятда ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли ҳар бир фуқаро меҳнат қонунчилиги нормаларини билиши, ўз ҳуқуқлари бузилган тақдирда эса судга мурожаат қилиш имкониятларидан фойдаланиши зарур.

Судлар томонидан меҳнат низоларининг қонуний ва адолатли кўриб чиқиши эса фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқларини ишончли ҳимоя қилишга хизмат қилади.

**Замонали МАЖИДОВ,**  
**Фуқаролик ишлари бўйича Дўстлик туманларо судининг судьяси.**

## ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРИ, УЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Мамлакатимизда вояга етмаганларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш ҳамда қонуний манфаатларини таъминлаш давлат сиёсати даражасига кўтарилди.**

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 45-моддасида "Вояга етмаганлар, меҳнатга лаёқатсизлар ва ёлғиз кексаларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида" эканлиги ҳамда 64-моддасида "Ота-оналар ўз фарзандларини вояга етгунларига қадар боқиш ва тарбиялашга мажбурийлиги" мустаҳкамлаб қўйилган.

Маъмурий жавобгарликка тортилиш ёши Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 13-моддасида 16 ёш деб белгиланган. Маъмурий ҳуқуқбузарликни кўриб чиқадиган мансабдор шахс маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахс айнан 16 ёшга тўлган-тўлмаганлигини исботлаши лозим, акс ҳолда, яъни шахс 16 ёшга тўлмаган ҳолларда маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритишни бошлаш мумкин эмас, бошланган иш эса тугатилиши лозим.

Вояга етмаганларнинг маъмурий ҳуқуқбузарлиги учун жазо Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс ва бошқа норматив ҳужжатлар-

да белгилаб қўйилган доирада ва тартибда қўлланилади ҳамда бу тоифа шахсларга жазо қўллаш чоғида содир этилган ҳуқуқбузарлик хусусияти ва ҳуқуқбузарнинг шахси инобатга олинади ҳамда унинг ўзи эса айнан вояга етмаган шахс бўлганлиги учун ҳам унинг ҳаракати жавобгарликни енгиллаштирувчи ҳолат бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 14-моддасида маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган ўн олти ёшдан ўн саккиз ёшгача бўлган шахсларга нисбатан Болалар масалалари бўйича комиссиялар тўғрисидаги низомда назарда тутилган чоралар қўлланилиши белгиланган.

Вояга етмаганларнинг ҳуқуқбузарликлари, ўз навбатида, уларнинг ижтимоий муҳити, тарбия, таълим ва психологиясидан келиб чиқиб, уларнинг келажак ҳаётига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бундан ташқари, оила меъёрлари ва қадриятларининг деформацияси вазиятни янада оғирлаштиради.

Ўзбекистон Республикасида вояга етмаганлар орасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишнинг ҳуқуқий асосини Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунлари, Ўзбекистон Республикаси

## DO'STLIKDA CHIGIT EKISH ISHLARI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA OLIB BORILMOQDA

Do'stlik tumanida joriy yil qishloq xo'jaligi mavsumi doirasida 13 ming gektar yer maydonida fermer xo'jaliklari tomonidan chigit ekish rejalashtirilgan bo'lib, bu boradagi ishlar aniq reja asosida tizimli ravishda olib borilmoqda.

Xususan, tumandagi "Jizzax ostonasi" fermer xo'jaliklari hududiy uyushmasida ham dala ishlari uyushqoqlik bilan tashkil etilgan. Ushbu hududda chigit ekish jarayonlari zamonaviy yondashuvlar asosida jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, joriy yilda mazkur hududiy uyushmada Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon provinsiyasidan kelib ish olib borayotgan tajribali dehqonlar ham faoliyat yuritmoqda. Ayni paytda ular tomonidan 1000



gektar maydonda zamonaviy "Shinjon usuli" asosida, 76 sxema bo'yicha tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan holda chigit ekish ishlari amalga oshirilmoqda.

Jarayonlar puxta rejalashtirilgan bo'lib, yerlarni tekislash, chigit ekish va tomchilatib sug'orish tizimini

o'rnatish ishlari o'zaro uzviy bog'liq holda, belgilangan ketma-ketlik asosida tashkil etilgan.

Bu kabi ilg'or agrotexnologiyalarning joriy etilishi hosildorlikni oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda fermerlar daromadini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Farangiz VALIXONOVA, talaba**

## SUN'IY INTELLEKT VA BIZ:

### KELAJAKDA ISH TOPA OLAMIZMI?

XXI asr texnologik taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlaridan biri — sun'iy intellekt (AI) hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor 1956-yilda AQShda o'tkazilgan Dartmouth konferensiyasida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, unda John McCarthy, Marvin Minsky kabi yetuk olimlar ishtirok etgan. O'sha davrdan boshlab sun'iy intellekt nazariy g'oyadan amaliy vositaga aylanish yo'lini bosib o'tdi va bugungi kunga kelib inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bordi.

Zamonaviy statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda dunyo aholisining qariyb 16 foizi sun'iy intellekt texnologiyalaridan bevosita foydalanmoqda. Ayniqsa, ChatGPT, DeepSeek, Gemini kabi platformalarning qisqa vaqt ichida ommalashuvi AI'ning kundalik hayotimizdagi rolini yanada mustahkamladi. Bu esa jamiyatda muhim savolni kun tartibiga olib chiqmoqda: sun'iy intellekt inson mehnatini siqib chiqaradimi yoki aksincha, yangi imkoniyatlar yaratadimi?

Hozirgi davrni texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bosqich sifatida tavsiflash mumkin. Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U tarjima xizmatlari, ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik tavsiyalar, tibbiyot diagnostikasi, moliyaviy tahlil va ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Xususan, ta'lim sohasida AI o'quvchilarga ilmiy materiallar tayyorlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va mustaqil o'rganish jarayonini samarali tashkil etishda yordam bermoqda.

Sun'iy intellektning rivojlanishi qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Avvalo, ayrim kasb va ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi natijasida qisqarish xavfi mavjud. Ayniqsa, takrorlanuvchi va mexanik xarakterga ega ishlar AI tomonidan tez va samarali bajarilishi sababli inson mehnatiga bo'lgan ehtiyoj kamayishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan noto'g'ri foydalanish yolg'on axborotlarning tarqalishiga, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilishga olib kelishi ehtimoli ham mavjud.

Mazkur muammo tarixiy kontekstda ham yangilik emas. Har bir texnologik inqilob davrida yangi vositalar eski kasblarning yo'qolishiga olib keladi degan xavotirlar mavjud bo'lgan. Masalan, kompyuter texnologiyalari joriy etilganda ko'plab an'anaviy hisob-kitob ishlari yo'qoladi deb hisoblangan. Ammo amalda

bu jarayon yangi kasblar, yangi yo'nalishlar va kengroq imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Sun'iy intellekt rivojida ham xuddi shunday tendensiyani kuzatish mumkin.

Iqtisodiy nuqtayi nazaridan, sun'iy intellekt ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Avval bir necha kun yoki hafta talab qilgan ishlar AI yordamida bir necha daqiqada bajarilishi mumkin. Bu esa korxonalar uchun xarajatlarni kamaytiradi, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi va natijada iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiy o'sish esa o'z navbatida yangi ish o'rinlari va yangi kasblarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Shuning uchun zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar va talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini yangilab borishlari zarur. Kelajakda raqobatbardosh bo'lish uchun quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish muhimdir:

- tanqidiy fikrlash va analitik yondashuv;
- samarali muloqot va hissiy intellekt;
- sun'iy intellekt texnologiyalaridan ongli va samarali foydalanish ko'nikmalari.

Ta'kidlash joizki, sun'iy intellekt rivoji global miqyosda ijtimoiy tengsizlik muammosini ham keskinlashtirishi mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi texnologik tafovut ortib borishi ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, past malakali ishchi kuchi vakillari ish o'rinlarini yo'qotish xavfiga duch keladi. Masalan, ilgari jamoat transportida yo'l haqi yig'ish bilan shug'ullangan xodimlar o'rnini bugungi kunda elektron to'lov tizimlari egallagan.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt insoniyat uchun xavf emas, balki yangi imkoniyatlar manbai hisoblanadi. U takrorlanuvchi va zerikarli vazifalarni avtomatlashtirish orqali insonni yanada ijodiy, innovatsion va strategik faoliyatga yo'naltiradi. Eng asosiy muammo esa texnologiyaning o'zi emas, balki unga moslasha olmaslikdir. Shu sababli zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyat kaliti — bu o'zgarishlarga tez moslashish, yan-gi bilimlarni egallash va texnologiyalardan samarali foydalanishdir.

**Valisher ABIROV,**  
Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti  
dotsenti  
**Asadbek ZAMONOV,**  
Toshkent davlat  
sharqshunoslik universiteti  
talabasi

## Shirin kartoshka – batat:

### ISSIQNI XUSH KO'RADIGAN BU TURDAGI KARTOSHKALAR QANDAY YETISHTIRILADI?

Batat (ipomoea batatas) – shirin kartoshka, pechakguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik, issiqsevar o'simlik bo'lib, poyasi serbarg, yerga taralib o'sadi.

Kartoshkaning bu turi tropik hududlardagi ko'p yillik o'simlik hisoblanadi. U oddiy kartoshka kabi aprel yoki may oyida ochiq maydonlarda ekiladi. Faqat tuprog'i unumdor va ozuqalar bilan to'yintirilgan bo'lishi zarur.

U quyosh nurini xush ko'radi. Ildizlarining yaxshi

rivojlanishi uchun ham bu zarur. Harorat 20°C bo'lishi kartoshkaning tezroq hosilga kirishiga yordam beradi.

Shirin kartoshkani zararkunandalar va begona o'tlardan doimiy himoya qilish kerak. Muntazam sug'orib, tuproqni salqin tutish muhim. To'yintirish uchun esa, tabiiy organik moddalardan tayyorlangan kompost va mulchdan foydalaniladi.

Terim mavsumi sentabr yoki oktabr oylarida boshlanadi. Terilgan

kartoshkani 1 kun quyosh ostida, ochiq maydonda saqlash kerak. Sovuq, quruq va kislorodsiz joyda u uzoq yashay olmaydi. Undagi kraxmal shakar kabi shirin ta'mga aylanishi uchun 2 hafta kutiladi.

Kartoshka tabiiy shirinligi sababli har qanday taomni mazali qila oladi. Shuningdek unda inson salomatligi uchun zarur bo'lgan kaliy, A vitamini va antioksidantlar mavjud.

**Aliboy ISMOILOV,**  
O'simliklar karantini va  
himoyasi Arnasoy tumani  
bo'limi fitosanitar nazorat  
Davlat inspektori..

## Kutubxona fondi:

### BILIMLAR XAZINASINING POYDEVORI

Har qanday kutubxonaning yuragi – bu uning fondidir. Agar kutubxona binosini inson tanasiga o'xshatsak, uning fondini o'sha tanaga hayot baxsh etuvchi qon tomirlar deyish mumkin. Kutubxona fondi - bu shunchaki tartib bilan terilgan kitoblar to'plami emas, balki insoniyat tomonidan asrlar davomida to'plangan tajriba, ilm va tafakkurning tizimli jamlanmasidir. Bugungi axborot texnologiyalari asrida fond tushunchasi yangicha ma'no kasb etmoqda. Endilikda kutubxonachi nafaqat chang bosgan javonlarni tartibga soluvchi, balki ulkan ma'lumotlar ummonida kutubxonaga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi insonga aylandi. Ushbu maqolada biz kutubxona fondining qanday shakllanishi uni saqlashdagi o'ziga xos qiyinchiliklar haqida so'z yuritimiz. Keling sizni

Do'stlik tumani axborot-kutubxona fondi bilan tanishtiramiz. Kutubxona fondi tasodifiy yig'ilmaydi. Bu jarayon ilmiy asoslangan bir nechta bosqichdan iborat.

1. Butlash: Yangi adabiyotlarni sotib olish, sovg'a sifatida qabul qilish orqali.

2. Hisobga olish: Har bir kitob nusxasiga inventar raqam berish.

3. Ishlov berish: Kitoblarga shtamp bosish klassifikatsiya qilish texnik va ilmiy ishlov berish.

4. Joylashtirish: Ishlov berib bo'lingandan so'ng universal o'nli klassifikatsiya bo'yicha javonlarga joylashtirish.

Hozirgi vaqtda Do'stlik tumani axborot kutubxona markazida 25520 nusxadan ortiq nashrlar saqlanmoqda. Shundan 11758 nusxada badiiy adabiyot, 1135 nusxada

bolalar adabiyoti, 480 nusxada falsafa psixologiyaga oid, 1944 nusxada rus adabiyotlar va qolganlari fanga oid adabiyotlarimiz mavjud. Kitoblardan tashqari fondimizda gazeta va jurnallar ham joy olgan. Bizning kutubxona barchani ko'zini quvnatuvchi bilimlar maskanidir.

Xulosa qiladigan bo'lsak kutubxona fondini shunchaki javonlardagi kitoblar to'plami deb qarash -katta yangilishdir. Bu bizning o'tmishimizni saqlovchi ko'priq, bugungi kun uchun ma'lumotlar koni va kelajak avlod uchun yaratilgan intellektual poydevordir. Kutubxona fondning boyligi va tizimli shakllantirilishi jamiyatning ma'naviy va ilmiy salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir.

**Gulnoza BOLTAYEVA,**  
Do'stlik tumani  
Axborot-kutubxona  
markazi Fondlarni  
to'ldirish, saqlash va  
ularga ishlov berish  
xizmati xizmat rahbari.



MANZIL: Dўstlik shahri,  
Dўstlik kўchasi 17-uy.  
Telefon: (0372) 335-44-93.

**БОШ МУҲАРРИР:**  
**Бердиёр ҚОРАЕВ**

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**  
Амиркул Холматов, Махмуд  
Яхшилик, Муҳаммад  
Исмоилов

Навбатчи Худойберди  
Мирҳосилов

Газета Жиззах вилоят Матбуот  
ва Ахборот бошқармаси  
томонидан 2006 йил 25  
декабрда 06-006 рақами билан  
рўйхатга олинган.

Ҳажми - 1 босма тобоқ. Қоғоз  
бичими А-3. Баҳоси келишилган  
нархда.

Адади 256 та. Буюртма № 167

Таҳририятга келган қўлёзмалар тақриз  
қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.  
Реклама материаллари учун таҳририят  
жавобгар эмас.

Газета Pentium-4 компьютерида териб  
саҳифаланди ва офсет усулида чоп этилди.

Газетанинг полиграфик жиҳатдан  
сифатли чоп этилишига  
«Rastr Plus Print» МЧЖ босмаҳонаси масъул.

Босмаҳона манзили:  
Жиззах ш., Сайилжойи кўчasi 4-уй.  
Telefon: (0-372) 226-40-41.